

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 336.77

XAYITOVA MAFTUNA RAXMATILLA QIZI

**BANKLARNING TRANSFORMATSIYALASHUVIDA KREDITDAN
FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

08.00.07 –Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi**

Ilmiy rahbar: I.f.n.,prof. Toymuxamedov I.R.

**Toshkent – 2025
MUNDARIJA**

KIRISH 3

I BOB. TIJORAT BANKLARINING KREDIT BERISH	
SALOHİYATINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI	12
1.1.Kredit salohiyati tushunchasi va uni baholashning tasnifi	12
1.2.O‘zbekiston Respublikasida kreditdan foydalanishni baholashning huquqiy asoslari	34
1.3.Mijozning kreditga layoqatliligini baholash usullarining xorij tajribasi	48
I bob bo‘yicha xulosa	61
II BOB.O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT	
BANKLARIDA QARZDORNING KREDIT LAYOQATLILIGINI	
BAHOLASH USULLARI VA UNING TAHLILI	63
2.1.Tijorat banklarida yuridik va jismoniy shaxslarning kredit layoqatliligini baholash usullari va uning tartibi	63
2.2.O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari resurs bazasi tahlili	87
2.3.Tijorat banklarining “Yashil” kredit loyihalari tahlili	96
I bob bo‘yicha xulosa	107
III BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT	
BANKLARIDA QARZDORNI KREDIT LAYOQATLILIGINI	
BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH	
ISTIQBOLLARI	109
3.1.Mijozning kreditdan samarali foydalanishning asosiy ko‘rsatkichlari ...	109
3.2.O‘zbekiston bank tizimida qarzdorning kredit layoqatliligini baholash usullarini takomillashtirish yo‘llari	122
3.3.O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida kredit riski va uni boshqarishdagi muammolar	137
I bob bo‘yicha xulosa	152
XULOSA VA TAKLIFLAR	174
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	161
ILOVALAR	165

KIRISH.

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida bank tizimini transformatsiya qilish jarayonida kredit resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish muhim strategik ahamiyat kasb etadi, chunki moliyaviy vositachilikni modernizatsiya qilish orqali investitsiya muhitini yaxshilash va

iqtisodiyotning real sektoriga moliyaviy resurslarni samarali yo‘naltirish imkoni yaratiladi. Zamonaviy moliyaviy muhitda kredit samaradorligi banklarning xavf-xatarlarni baholash va boshqarish qobiliyati, raqamli texnologiyalarni joriy etish, kapitalning sifat tarkibi va mijozlar bilan munosabatlarda shaffoflik darajasi bilan chambarchas bog‘liq. Jahon banki ma’lumotlariga asoslanadigan bo’lsak: «Kredit samaradorligi moliya sektori barqarorligining asosiy omili hisoblanadi, va ajratish mexanizmlarini takomillashtirish investitsiya mahsuldorligi hamda makroiqtisodiy barqarorlikni oshirishga bevosita ta’sir qiladi” .

Jahonda banklarning transformatsiyalashuvida kreditdan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar moliyaviy vositachilikni optimallashtirish, kredit ajratishda intellektual tahlil modellarini (AI, machine learning) joriy etish, xavf-xatarlarni boshqarish tizimlarini takomillashtirish hamda raqamli platformalar asosida mijozlarni saralash va baholash mexanizmlarini ishlab chiqish kabi ustuvor yo‘nalishlarni qamrab olmoqda. Shuningdek, tadqiqotlarda kredit portfelining diversifikatsiyasi, kredit resurslarining sektorlararo taqsimoti samaradorligini baholash, ESG(Environmental, Social, and Corporate Governance) mezonlari asosida mas’uliyatli kreditlash amaliyotini kengaytirish hamda bank kapitali va likvidlik ko‘rsatkichlari bilan kredit samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga qaratilgan uslubiy yondashuvlar muhim o‘rin tutmoqda. Ayniqsa, xalqaro amaliyotda markaziy banklar va moliyaviy nazorat organlari tomonidan ishlab chiqilgan makroprudensial siyosatlar doirasida kredit faoliyatining samaradorligini tahlil qilish va baholash mezonlarini takomillashtirish ham dolzarb ilmiy izlanishlar sirasiga kiradi.

O‘zbekistonda banklarning transformatsiyalashuvida kreditdan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida barqaror moliyaviy muhit yaratish, kredit siyosati mexanizmlarini takomillashtirish va banklar kapitali bilan likvidlikni muvozanatlashtirish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Moliya sohasida raqamlashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali loyihalarni kreditlash jarayonini avtomatlashtirish, xavf-xatarlarni ilg‘or tahlil vositalari yordamida baholash hamda kredit portfelining sifatini yaxshilash ustuvor

vazifalar sifatida belgilangan. Bundan tashqari, mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, banklar o'rtasida samarali hamkorlikni mustahkamlash, mikro, kichik va o'rta biznes sub'ektlarini kreditlashni kengaytirishga qaratilgan dasturlar tatbiq etilmoqda. "Biz, avvalo, chetdan kredit va sarmoyalar olib kelish bo'yicha samarali tizim yaratishimiz, har bir kreditni aniq ishlatishni o'rganishimiz lozim. Bu masalada yetti o'lchab, bir marta kesadigan, oqibatini puxta o'ylab ish olib boradigan davr keldi". "So'nggi yillarda mamlakatimizda ilg'or bank biznesini yuritish hamda ushbu sektorda raqobat muhitini kuchaytirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar yaratildi. Endi, toifaga qarab, tumanlarning iqtisodiy rivojlanishini belgilaymiz. Tadbirkorlar uchun subsidiya, kreditlar va kompensatsiyalar toifalardan kelib chiqib ajratiladi". Markaziy bank tomonidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish, kreditlash jarayonidagi shaffoflikni ta'minlash va barqarorlikni oshirish maqsadida yangi regulyatorlik choralari joriy etilishi ham ushbu jarayonning muhim qismi hisoblanadi. Bu sa'y-harakatlar iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va bank sektori ustuvorligini mustahkamlashda katta rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son «2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi farmonlari, 2019-yil 9-oktabrdagi PQ-4487-son «O'zbekiston Respublikasi bank sektorining moliyaviy barqarorligini oshirishga oid birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida», 2018-yil 23-martdagi PQ-3620-son «Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida», 2017-yil 12-sentabrdagi PQ-3270-son «Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni maʼnaviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yoʻnalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Mijozning kreditga layoqatliligi tahlili va baholash masalalari bir qator xorijlik iqtisodchilar, jumladan, D.Yendovskiy, S.Ermakov, X.Soto, A.Balabanov, V.Prosalova, A.Gryaznova, Ye.Dolan, V.Gluşenko, O.Lavrushin, J.Matuk, G.Panova, Dj.Sinkening ilmiy izlanishlarida oʻz aksini topgan .

Oʻzbekistonlik iqtisodchi olimlardan Y.Abdullaev, Sh.Abdullaeva, N.Jumaev, M.Xamidulin, E.Akramov, M.Pardaev, U.Azizov, M.Raximov, B.Xakimov, S.Maxmudov, A.Gʻulomxoʻjaevlarning ilmiy ishlarida mazkur masalaning alohida jihatlari oʻz aksini topgan .